



THE INTERNATIONAL LEGAL PERSONALITY OF TRANSNATIONAL CORPORATIONS: THE “SUBJECT OR OBJECT OF LAW” DEBATE AND THE POSSIBILITY OF HOLDING THEM LEGALLY RESPONSIBLE BY STATES

Shohsaidkhon Mansurov

Master's Student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Science MTN-0726-0324

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: transnational corporations; international legal personality; subject and object of law; non-state actors; direct and indirect obligations; corporate liability; investment arbitration.

Received: 26.07.26

Accepted: 27.07.26

Published: 28.07.26

Abstract: There is little doubt today that transnational corporations (TNCs) have become among the most powerful actors in the global economy. In some cases, their economic capacity equals or even exceeds that of many sovereign states. Nevertheless, their legal status and international legal personality remain among the most controversial issues in the theory of international law. According to the traditional approach, states are the primary and full subjects of international law, whereas transnational corporations are regarded not as direct subjects of international law but rather as objects of its regulation. This article examines the longstanding “subject or object of law” debate concerning the international legal status of transnational corporations based on leading scholarly perspectives and demonstrates that the issue is of not only theoretical but also significant practical importance. This is because the recognition of a corporation's international legal personality determines whether it may be held directly responsible under international law for violations of international legal norms.

The article analyzes the emergence and development of the theory of international legal personality, including the approaches derived from the International Court of Justice's 1949 Advisory Opinion in Reparation

for Injuries Suffered in the Service of the United Nations (“Reparations”). It further provides a comparative legal analysis of the principal doctrinal approaches to the international legal status of transnational corporations, including the traditional approach, the revisionist approach, the concepts of direct and indirect international obligations, as well as skeptical and functional approaches. The findings indicate that transnational corporations currently possess a limited degree of participation in the international legal system. In particular, international investment arbitration enables corporations to bring direct procedural claims against states; international soft law establishes standards of corporate conduct; and the draft legally binding international treaty on business and human rights currently being negotiated within the United Nations seeks to establish direct international obligations for corporations.

The article concludes by assessing the practical significance of this theoretical debate for the Republic of Uzbekistan.

**TRANSMILLIY KORPORATSIYALARNING XALQARO HUQUQIY SUBYEKTLIGI:
“HUQUQ SUBYEKTI YOKI HUQUQ OBYEKTI” MUNOZARASI VA
DAVLATLARNING ULARNI HUQUQIY JAVOBGARLIKKA TORTISH
IMKONIYATI**

Shohsaidxon Mansurov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti magistranti

Ilmiy identifikatsiya raqami: MTN-0726-0324

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit	so‘zlar:	transmilliy	Annotatsiya:
korporatsiyalar; xalqaro huquqiy subyektlik; huquq subyekti va obyekt; nodavlat subyektlar; to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita majburiyatlar; korporativ javobgarlik; investitsiya arbitraji.			Bugungi kunga kelib zamonaviy dunyoda transmilliy korporatsiyalar jahon iqtisodiyotining eng qudratli ishtirokchilaridan biriga aylanganiga hech qanday shubha yo‘q. Ayrim hollarda ularning iqtisodiy salohiyati ko‘plab davlatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan tenglashadi yoki ulardan ham ustun bo‘ladi. Shunga qaramay, ularning xalqaro huquqdagi maqomi va xalqaro huquqiy subyektligi masalasi hanuzgacha xalqaro huquq nazariyasining eng bahsli muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. An‘anaviy yondashuvga

ko'ra, davlat xalqaro huquqning asosiy va to'laqonli subyekti hisoblanadi, transmilliy korporatsiyalar esa xalqaro huquqning bevosita subyektlari emas, balki uning tartibga solish obyekti sifatida qaraladi. Mazkur maqolada transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqdagi maqomi yuzasidan mavjud bo'lgan "Subyekt yoki obyekt" munozarasi yetakchi ilmiy qarashlar asosida tahlil qilinadi hamda ushbu masalaning nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslab beriladi. Chunki korporatsiyaning xalqaro huquqiy subyektligi masalasi uni xalqaro huquq normalarini buzganligi uchun bevosita xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortish imkoniyatini belgilaydi. Maqolada xalqaro huquqiy subyektlilik nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi, jumladan Xalqaro Sudning "Reparation for Injuries Suffered in the Service of the United Nations" ("Reparations") bo'yicha 1949-yildagi maslahat xulosasi asosida vujudga kelgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqiy maqomiga oid asosiy doktrinal qarashlar – an'anaviy, revizionistik, to'g'ridan to'g'ri va bilvosita majburiyatlar konsepsiyasi, skeptik hamda funksional yondashuvlar – qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, transmilliy korporatsiyalar hozirgi xalqaro huquq tizimida cheklangan darajadagi xalqaro-huquqiy ishtirokka ega. Xususan, investitsiya arbitraji ularga davlatlarga nisbatan bevosita protsessual da'volar qo'zg'atish imkoniyatini beradi, xalqaro yumshoq huquq (soft law) korporativ xulq-atvor standartlarini shakllantiradi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida ishlab chiqilayotgan biznes va inson huquqlariga oid majburiy xalqaro shartnoma loyihasi esa korporatsiyalar uchun bevosita xalqaro majburiyatlarni belgilashga intiladi. Maqola yakunida ushbu nazariy munozaraning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati baholanadi.

**МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТЬ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫХ
КОРПОРАЦИЙ: ДИСКУССИЯ «СУБЪЕКТ ИЛИ ОБЪЕКТ ПРАВА» И**

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИХ ГОСУДАРСТВАМИ К ЮРИДИЧЕСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Шохсайдхон Мансуров

Магистрант

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Научный идентификационный номер: MTN-0726-0324

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
транснациональные международная субъект и объект права; негосударственные субъекты; прямые и косвенные международные корпоративная инвестиционный арбитраж.	корпорации; правосубъектность; негосударственные обязательства; ответственность;	На сегодняшний день не вызывает сомнений, что транснациональные корпорации стали одними из наиболее влиятельных участников мировой экономики. В ряде случаев их экономический потенциал сопоставим с экономическими показателями многих государств или даже превосходит их. Несмотря на это, вопрос об их статусе и международной правосубъектности по-прежнему остается одной из наиболее дискуссионных проблем теории международного права. Согласно традиционному подходу, государство является основным и полноправным субъектом международного права, тогда как транснациональные корпорации рассматриваются не как непосредственные субъекты международного права, а как объекты его регулирования. В настоящей статье на основе ведущих научных концепций анализируется дискуссия «субъект или объект права» относительно международно-правового статуса транснациональных корпораций и обосновывается, что данная проблема имеет не только теоретическое, но и существенное практическое значение. Это обусловлено тем, что признание международной правосубъектности корпорации определяет возможность привлечения её к непосредственной международно-правовой ответственности за нарушение норм международного права. В статье рассматриваются становление и развитие теории международной правосубъектности, в том числе подходы, сформировавшиеся на основе консультативного заключения Международного Суда ООН по делу

«Reparation for Injuries Suffered in the Service of the United Nations» («Репарации») 1949 года. Кроме того, проводится сравнительно-правовой анализ основных доктринальных подходов к международно-правовому статусу транснациональных корпораций: традиционного, ревизионистского, концепции прямых и косвенных международных обязательств, скептического и функционального подходов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что в современной системе международного права транснациональные корпорации обладают ограниченной международной правосубъектностью. В частности, международный инвестиционный арбитраж предоставляет им возможность непосредственно предъявлять процессуальные требования к государствам, международное «мягкое право» (soft law) формирует стандарты корпоративного поведения, а разрабатываемый в рамках Организации Объединённых Наций проект обязательного международного договора о бизнесе и правах человека направлен на установление прямых международных обязательств для корпораций.

В заключение статьи оценивается практическое значение данной теоретической дискуссии для Республики Узбекистан.

Kirish. Transmilliy korporatsiyalarning huquqiy tabiati hamda ularning xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar tizimidagi o'zni masalasi zamonaviy xalqaro huquq nazariyasining eng murakkab va hanz yakuniy yechim topmagan muammolaridan biri hisoblanadi. Bir tomondan, transmilliy korporatsiyalar global iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar, ishlab chiqarish zanjirlari va texnologiyalar transferida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayrim transmilliy korporatsiyalarning yillik daromadlari yoki iqtisodiy aylanmasi hatto ko'plab o'rta darajadagi davlatlarning yalpi ichki mahsulotidan ham yuqori bo'lib, bu ularning jahon iqtisodiyotidagi ta'sir doirasi naqadar keng ekanligini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, xalqaro huquqning an'anaviy doktrinasi transmilliy korporatsiyalarni xalqaro huquqning to'laqonli va mustaqil subyektlari sifatida e'tirof etmaydi. Natijada iqtisodiy qudrat bilan xalqaro-huquqiy maqom o'rtasida sezilarli nomutanosiblik yuzaga keladi. Mazkur

nomutanosiblik faqat nazariy emas, balki muhim amaliy oqibatlarga ham ega. Xususan, transmilliy korporatsiyalar davlat hududidan tashqarida faoliyat yuritish jarayonida inson huquqlarining buzilishi yoki atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazilishi bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda, ularni xalqaro huquq normalari asosida bevosita xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortishning samarali va umumiy majburiy mexanizmlari ko'plab hollarda mavjud emas. Aynan shu holat transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqish zarurati haqidagi ilmiy munozaralarning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur maqola quyidagi markaziy ilmiy savolni tadqiq etishga qaratilgan: transmilliy korporatsiya xalqaro huquqning subyekti hisoblanadimi yoki obykti, hamda ushbu masalaning yechimi davlatlarning, xususan O'zbekiston Respublikasining, transmilliy korporatsiyalarni xalqaro-huquqiy va milliy-huquqiy javobgarlikka tortish imkoniyatlariga qanday ta'sir ko'rsatadi? Mazkur savol bir qarashda sof nazariy xususiyatga ega bo'lib ko'rinsa-da, aslida u muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, xalqaro huquqiy subyektlik masalasi xalqaro majburiyatlarning manbai, ularning adresati hamda javobgarlikni amalga oshirish mexanizmlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Agar transmilliy korporatsiya xalqaro huquqning bevosita subyekti va xalqaro majburiyatlar egasi sifatida e'tirof etilsa, u holda uning xalqaro huquq normalarini buzganligi uchun to'g'ridan to'g'ri xalqaro-huquqiy javobgarligi masalasini qo'yish mumkin bo'ladi. Aksincha, agar transmilliy korporatsiya xalqaro huquqning faqat obykti sifatida qaralsa, uning faoliyati ustidan nazorat va javobgarlikni ta'minlash, asosan, davlatlarning ichki huquq tizimi hamda milliy qonunchilik mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli transmilliy korporatsiyaning xalqaro huquqiy maqomini aniqlash nafaqat nazariy, balki davlatlarning korporativ javobgarlikni ta'minlash bo'yicha huquqiy imkoniyatlarini belgilovchi fundamental masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ushbu mavzu bo'yicha muallifning avvalgi ilmiy izlanishlari bilan uzviy bog'liq. Xususan, oldingi tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasida korporativ barqarorlik (corporate sustainability) bo'yicha majburiyatlarni milliy qonunchilik orqali bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek investitsiya shartnomalari hamda investor-davlat nizolarini huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilingan edi. Ushbu maqola esa mazkur amaliy takliflarning nazariy asoslarini ochib beradi hamda transmilliy korporatsiyalar faoliyatini, hech bo'lmaganda xalqaro huquqning hozirgi rivojlanish bosqichida, asosan milliy huquq mexanizmlari orqali tartibga solish zaruratini xalqaro huquqiy subyektlik nazariyasi nuqtai nazaridan asoslaydi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqiy subyektligi masalasi keng muhokama qilingan bo'lsa-da, ushbu munozaralar ko'pincha nazariy darajada qolib ketadi va davlatlarning, ayniqsa o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning, korporatsiyalar

faoliyatini tartibga solish imkoniyatlari bilan yetarli darajada bog'lanmaydi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, u xalqaro huquqiy subyektlik haqidagi nazariy qarashlarni davlatning transmilliy korporatsiyalarni javobgarlikka tortish bo'yicha amaliy huquqiy imkoniyatlari bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qiladi. Natijada xalqaro huquq nazariyasi va milliy tartibga solish mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yanada aniqroq yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Subyektlik tushunchasi va uning klassik asoslari

Xalqaro huquqiy subyektlik deganda xalqaro huquq normalari asosida xalqaro huquq va majburiyatlarning bevosita egasi bo'lish, ularni amalga oshirish hamda zarur hollarda ushbu huquq va manfaatlarni xalqaro-huquqiy mexanizmlar orqali himoya qila olish qobiliyati tushuniladi. An'anaviy xalqaro huquq nazariyasiga ko'ra, xalqaro huquqning asosiy va to'laqonli subyekti davlat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, davlat suverenitetga, aniq hududga, doimiy aholiga hamda boshqa davlatlar bilan xalqaro munosabatlarga mustaqil ravishda kirishish layoqatiga ega. Shu bois klassik xalqaro huquq, avvalo, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tizimi sifatida shakllangan. Biroq XX asrning o'rtalaridan boshlab mazkur davlat-markazli yondashuv keng ilmiy munozaralarga sabab bo'ldi. Xususan, 1946-yilda Filip Jessup xalqaro huquq subyektlari doirasini kengaytirish zarurligini asoslab, xalqaro huquq faqat davlatlar faoliyatini tartibga solish bilan cheklanmasligi lozimligini ta'kidladi[12]. O'z navbatida, Xersh Lauterpaxt individlar ham xalqaro huquqning bevosita subyektlari bo'lishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslab berdi va shu orqali davlat-markazli konsepsiyaga muqobil yondashuvni ilgari surdi[17]. Boshqa tomondan, huquqiy pozitivizm maktabining yirik namoyandasi Xans Kelzen davlatning xalqaro huquqdagi asosiy subyekt maqomini saqlab qolgan holda, xalqaro huquq normalari ayrim hollarda bevosita individlarga nisbatan ham huquq va majburiyatlarni nazarda tutishi mumkinligini e'tirof etdi. Mazkur nazariy bahslar xalqaro huquqiy subyektlik masalasi nafaqat amaliy-huquqiy, balki fundamental nazariy va metodologik ahamiyatga ham ega ekanligini yaqqol namoyon etadi.

“Reparations” ishi va subyektlar doirasining kengayishi

Xalqaro huquqiy subyektlik konsepsiyasining evolyutsiyasida 1949-yilda qabul qilingan “Reparation for Injuries Suffered in the Service of the United Nations” (“Reparations”) bo'yicha Xalqaro Sudning maslahat xulosasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maslahat xulosasida Sud Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi maqomini e'tirof etib, xalqaro huquq nazariyasining keyingi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muhim huquqiy tamoyilni shakllantirdi. Unga ko'ra, har qanday huquqiy tizimda huquq subyektlari o'zining tabiati, huquqiy maqomi hamda huquq va majburiyatlari hajmiga ko'ra bir xil bo'lishi shart emas[6]. Mazkur yondashuv xalqaro huquqiy subyektlik faqat davlatlarga xos mutlaq maqom

emasligini, balki turli subyektlar xalqaro huquq normalari asosida turlicha hajm va mazmundagi huquq hamda majburiyatlarga ega bo'lishi mumkinligini e'tirof etdi.

“Reparations” bo'yicha maslahat xulosasi xalqaro huquq subyektlari doirasining kengayishiga mustahkam nazariy asos yaratdi. Natijada xalqaro tashkilotlar, shuningdek ayrim sohalarda, xususan xalqaro jinoyat huquqi va inson huquqlari tizimida individlar hamda boshqa nodavlat ishtirokchilar xalqaro huquqiy subyektlikning muayyan darajasiga ega subyektlar sifatida e'tirof etila boshlandi. Shu tariqa, xalqaro huquqiy subyektlik endilikda “mavjud yoki mavjud emas” degan mutlaq kategoriya sifatida emas, balki xalqaro huquqiy munosabatlarda ishtirok etish darajasini ifodalovchi nisbiy va ko'p pog'onali tushuncha sifatida talqin qilinmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro huquq doktrinasida ehtiyotkor yondashuv saqlanib qolmoqda. Xususan, Malkolm Shou va Jeyms Krouford xalqaro huquqning ayrim nodavlat ishtirokchilari cheklangan yoki hosila (derived) xalqaro huquqiy subyektlikka ega bo'lishi mumkinligini tan olsalar-da, bunday subyektlarning huquqiy maqomini davlatlarning birlamchi va to'laqonli xalqaro huquqiy subyektligi bilan tenglashtirish mumkin emasligini ta'kidlaydilar[21].

Power Company LLC va “Barcelona Traction” ishi

Korporatsiyalarning xalqaro huquqdagi maqomini baholashda Xalqaro Sudning “Barcelona Traction, Light and Power Company, Limited Liability Company” ishi alohida ahamiyatga ega. Mazkur ishda Sud korporatsiyaning aksiyadorlaridan mustaqil bo'lgan alohida huquqiy shaxs ekanligini e'tirof etdi hamda diplomatik himoya institutini qo'llash doirasida korporatsiyaning milliy mansubligi (nationality of corporations) masalasiga aniqlik kiritdi. Sudning ta'kidlashicha, korporatsiyaga nisbatan diplomatik himoyani, odatda, uning milliy mansubligiga ega bo'lgan davlat amalga oshiradi[5]. Shu bilan birga, mazkur qaror korporatsiyani xalqaro huquqning bevosita subyekti sifatida tan olmadi. Aksincha, uning xalqaro-huquqiy manfaatlari davlatning diplomatik himoyasi instituti orqali amalga oshirilishi qayd etildi. Bu esa klassik xalqaro huquq konsepsiyasining asosiy xususiyatini yaqqol namoyon etadi: korporatsiyalar xalqaro huquqiy munosabatlarda mustaqil ishtirokchi sifatida emas, balki o'z davlati vositachiligida xalqaro himoyadan foydalanuvchi huquqiy shaxs sifatida qaraladi.

Shunday qilib, an'anaviy xalqaro huquq doktrinasida korporatsiya xalqaro huquqning bevosita subyekti emas, balki uning xalqaro-huquqiy manfaatlari davlat orqali ifodalanadigan va himoya qilinadigan subyekt sifatida tavsiflanadi. Mazkur yondashuv davlatning xalqaro huquqdagi markaziy o'rni va diplomatik himoya institutining ustuvor ahamiyatini aks ettiradi.

Transmilliy korporatsiya: subyekt yoki obyekt? Ilmiy munozara

Transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqiy maqomi zamonaviy xalqaro huquq doktrinasida eng ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur masala doirasida transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquq subyekti sifatidagi o'rni, huquq va majburiyatlarining hajmi hamda xalqaro huquq tizimidagi maqomiga oid turli nazariy yondashuvlar shakllangan. Quyida ushbu doktrinal yondashuvlarning asosiy yo'nalishlari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

An'anaviy qarash: korporatsiya obyekt sifatida

An'anaviy davlat-markazli yondashuvga ko'ra, transmilliy korporatsiyalar xalqaro huquqning mustaqil subyekti emas, balki uning tartibga solish obyekti hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, korporatsiyalar o'z huquqiy maqomini milliy huquq tizimidan oladi va ularning xalqaro darajadagi huquq hamda majburiyatlari davlatlar vositasida shakllanadi. Shu sababli transmilliy korporatsiyalar xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro odat huquqi normalarini yaratish yoki xalqaro huquq bo'yicha bevosita majburiyatlarni zimmasiga olish vakolatiga ega emas deb qaraladi. James Crawford va Malcolm N. Shaw kabi mualliflar mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlab, transmilliy korporatsiyalarga to'laonli xalqaro huquq subyekti maqomini berish davlat suvereniteti tamoyiliga hamda xalqaro huquqning an'anaviy institutsional tuzilmasiga jiddiy nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydilar[9]. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi uning ichki mantiqiy izchilligi va davlat suvereniteti prinsipiga mos kelishidadir. Biroq uning zaif jihati shundaki, u zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda transmilliy korporatsiyalarning amalda shakllangan iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy ta'sir kuchini to'liq hisobga olmaydi.

Revizionist qarash: korporatsiya yangi subyekt sifatida

Revizionistik yondashuv transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy salohiyati va global miqyosdagi ta'siri ularni amalda (de facto) xalqaro huquqning mustaqil ishtirokchisiga aylantirganini ilgari suradi. Ushbu yondashuv tarafdorlari mavjud davlat-markazli xalqaro huquq modeli zamonaviy iqtisodiy munosabatlar ehtiyojlarini to'liq qamrab ololmayotganini ta'kidlaydilar. Beth Stephens transmilliy korporatsiyalar ularni tartibga solishga mo'ljallangan an'anaviy huquqiy mexanizmlardan amalda o'zib ketganini, natijada milliy huquq tizimlari ularning transchegaraviy faoliyatini samarali nazorat qilish imkoniyatiga ega emasligini qayd etadi[22]. Andrew Clapham esa inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlar nafaqat davlatlarga, balki nodavlat subyektlarga, jumladan transmilliy korporatsiyalarga ham tatbiq etilishi lozimligini nazariy jihatdan asoslaydi. Uning fikricha, inson huquqlarining samarali himoyasini faqat davlatlarning majburiyatlari bilan cheklash zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida yetarli emas[8]. Markos Karavias transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquq bo'yicha bevosita majburiyatlarga ega bo'lishi mumkinligini konseptual jihatdan asoslashga harakat qiladi[14]. Surya Deva va David Bilchitz esa korporativ javobgarlikning ixtiyoriy modelini tanqid qilib,

transmilliy korporatsiyalar zimmasiga xalqaro inson huquqlari sohasida bevosita va majburiy huquqiy majburiyatlarni yuklash zarurligini ilgari suradilar[10].

Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u transmilliy korporatsiyalarning ortib borayotgan iqtisodiy qudrati bilan ularning huquqiy javobgarligi o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashga intiladi. Biroq uning zaif jihati shundan iboratki, ushbu konsepsiya amaldagi xalqaro huquq tizimining davlat-markazli tuzilmasi bilan to'liq uyg'unlashmaydi. Shuningdek, transmilliy korporatsiyalarni xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida tan olish hozircha xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va amaliyotida o'z tasdig'ini topmagan.

“Bevosita va bilvosita majburiyatlar” munozarasi

Munozaraning markaziy nazariy masalalaridan biri transmilliy korporatsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xalqaro huquqiy majburiyatlari o'rtasidagi farqni aniqlash bilan bog'liq. Carlos Manuel Vázquez ushbu tafovutni konseptual jihatdan asoslab, korporatsiyalarning xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlari ikki shaklda namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri majburiyat bo'lib, u xalqaro huquq normalari bilan bevosita belgilanadi va xalqaro huquqiy mexanizmlar orqali ta'minlanadi. Ikkinchisi esa bilvosita majburiyat bo'lib, xalqaro huquq normalari davlat zimmasiga tegishli majburiyatlarni yuklaydi, korporatsiyalarning javobgarligi esa ushbu majburiyatlarning milliy qonunchilik orqali amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladi[23].

Vázquezning tahlili muhim ilmiy xulosaga olib keladi: transmilliy korporatsiyalarga taalluqli xalqaro huquq normalarining aksariyati bevosita emas, balki bilvosita xususiyatga ega bo'lib, ularning amaliy ijrosi davlatlarning ichki huquq tizimi va milliy qonunchiligi orqali ta'minlanadi.

Stephen Ratner esa korporativ inson huquqlari javobgarligini baholashning kompleks nazariy modelini taklif etadi. Uning Yale Law Journalda ilgari surilgan konsepsiyasiga ko'ra, transmilliy korporatsiyaning inson huquqlari bo'yicha majburiyatlari to'rtta asosiy omilga bog'liq: korporatsiyaning davlat bilan munosabatlari, jabrlanuvchilar bilan funksional yaqinligi (nexus), buzilgan yoki himoya qilinayotgan inson huquqining tabiati hamda korporatsiyaning tashkiliy va institutsional tuzilishi[19].

Ratnerning yondashuvi shunisi bilan ahamiyatliki, u korporativ javobgarlik masalasini transmilliy korporatsiyaning xalqaro huquq subyekti yoki obyekt ekanligi haqidagi mavhum nazariy bahsdan chetlashtirib, uni aniq huquqiy mezonlar asosida baholashni taklif etadi. Uning fikricha, xalqaro huquq amaliyoti va davlatlar amaliyoti mehnat huquqi hamda ayrim boshqa sohalarda korporatsiyalarning xalqaro standartlarga rioya etish majburiyatlarini bilvosita tan olib kelmoqda.

Skeptik qarash: “subyektlik” tushunchasining o’zi shubha ostida

To’rtinchi yondashuv xalqaro huquqdagi “subyektlik” tushunchasining nazariy va amaliy ahamiyatini qayta ko’rib chiqib, uning tahliliy qiymatini shubha ostiga qo’yadi. Ushbu yondashuv vakillari transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqdagi maqomini aniqlashdan ko’ra, ularga nisbatan amalda mavjud bo’lgan huquq va majburiyatlarni tahlil qilish muhimroq ekanini ta’kidlaydilar. José E. Alvarez transmilliy korporatsiyalar xalqaro investitsiya huquqi doirasida allaqachon sezilarli protsessual va moddiy huquqlarga ega ekanini e’tirof etadi. Biroq u korporatsiyalarni xalqaro huquqning “subyekt” sifatida tavsiflash masalani oydinlashtirishdan ko’ra, aksincha, qo’shimcha nazariy chalkashliklarni yuzaga keltirishini qayd etadi. Uning fikricha, ilmiy tahlilning asosiy e’tibori mavhum huquqiy maqomni aniqlashga emas, balki korporatsiyalarning xalqaro huquq doirasida amalda ega bo’lgan aniq huquqlari va zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini aniqlashga qaratilishi lozim[7]. Jan Klabbers ham shunga yaqin pozitsiyani egallab, huquqiy subyektlik huquq va majburiyatlarning mavjud bo’lishi uchun zarur bo’lgan dastlabki shart emas, balki aynan ularning mavjudligi natijasida shakllanadigan huquqiy holat ekanini asoslaydi. Shu bois, uning fikricha, transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqdagi maqomini abstrakt tarzda belgilashga urinishdan ko’ra, ularga nisbatan qo’llaniladigan aniq xalqaro huquq normalari va ularning amaliy oqibatlarini tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir[16]. Mazkur skeptik yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u munozarani mavhum tasnif va kategoriyalardan uzoqlashtirib, transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqdagi real huquqiy maqomini mavjud huquq va majburiyatlar tizimi orqali baholashga yo’naltiradi.

Funksional sintez: cheklangan va sohaviy subyektlik

Beshinchi, funksional yondashuv yuqorida ko’rib chiqilgan nazariy pozitsiyalarni muvozanatlashtiruvchi va ularning ijobiy jihatlarini uyg’unlashtiruvchi konsepsiya sifatida e’tirof etiladi. Mazkur yondashuvga ko’ra, xalqaro huquqiy subyektlik mutlaq, ya’ni «mavjud yoki mavjud emas» tarzidagi kategoriya emas, balki muayyan huquqiy munosabatlar va funksional ehtiyojlardan kelib chiqib shakllanadigan, hajmi va mazmuni turlicha bo’lishi mumkin bo’lgan huquqiy qobiliyatdir. Rosalyn Higgins xalqaro huquqdagi an’anaviy «subyekt–obyekt» dixotomiyasini sun’iy va zamonaviy xalqaro munosabatlarni to’liq aks ettirmaydigan tasnif sifatida baholab, uning o’rniga xalqaro huquqning turli ishtirokchilari (participants) konsepsiyasidan foydalanishni taklif etadi. Ushbu yondashuv xalqaro huquq tizimida davlatlar bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar, jismoniy shaxslar va transmilliy korporatsiyalar kabi boshqa ishtirokchilarning ham rolini funksional mezonlar asosida baholash imkonini beradi[11].

Peter Muchlinski ham funksional yondashuvni qo’llab-quvvatlab, transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqiy maqomi ularning abstrakt ravishda «subyekt» yoki «obyekt»

ekanligiga emas, balki ular ishtirok etayotgan aniq huquqiy munosabat va tartibga solish sohasi bilan belgilanishini asoslaydi. Shu bois korporatsiyaning xalqaro huquqiy qobiliyati barcha sohalarda bir xil emas, balki muayyan huquqiy kontekstga qarab farqlanadi[18]. Mazkur yondashuv Reparations for Injuries Suffered in the Service of the United Nations Advisory Opinionida shakllantirilgan tamoyil bilan hamohangdir. Ushbu maslahat xulosasida xalqaro huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari bir xil hajmga ega bo'lishi shart emasligi, balki ularning tabiati va funksiyalariga qarab farqlanishi mumkinligi e'tirof etilgan. Demak, xalqaro huquqiy subyektlik yagona va mutlaq maqom emas, balki funksional mazmunga ega bo'lgan nisbiy huquqiy kategoriya hisoblanadi.

Funksional yondashuv transmilliy korporatsiyalarning zamonaviy xalqaro huquqdagi maqomini eng to'liq ifodalaydi. Unga ko'ra, transmilliy korporatsiyalar xalqaro huquqning to'laqonli subyektlari sifatida e'tirof etilmasa-da, ayrim sohalarda, xususan xalqaro investitsiya huquqida, xalqaro arbitraj jarayonlarida hamda ayrim xalqaro standartlar doirasida cheklangan xalqaro huquqiy layoqat va protsessual imkoniyatlarga ega. Shu sababli ularning xalqaro huquqdagi maqomini faqat «subyekt» yoki «obyekt» kategoriyalari bilan izohlash yetarli emas; aksincha, ularning huquqiy maqomi bajaradigan funksiyasi va ishtirok etayotgan huquqiy munosabatlarning xususiyatidan kelib chiqib baholanishi lozim. Keyingi bo'limda ushbu cheklangan xalqaro huquqiy ishtirokning amaliy namoyon bo'lishi aniq misollar asosida tahlil qilinadi.

Natijalar va muhokama. Transmilliy korporatsiyaning xalqaro huquqdagi cheklangan ishtiroki

Yuqoridagi ilmiy munozaralar transmilliy korporatsiyaning xalqaro huquqdagi maqomini baholashda funksional yondashuvning ilmiy jihatdan asosliroq ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy xalqaro huquq amaliyoti ham ushbu yondashuvni tasdiqlaydi. Xususan, transmilliy korporatsiyalar bugungi kunda xalqaro huquqning ayrim institutlari doirasida cheklangan hajmdagi xalqaro-huquqiy huquq va vakolatlarga ega bo'lib, tegishli huquqiy munosabatlarda bevosita ishtirok etmoqda. Bu holat ularning xalqaro huquqdagi ishtiroki mutlaq emas, balki funksional va sohaga xos xususiyat kasb etishini ko'rsatadi. Quyida transmilliy korporatsiyalarning mazkur cheklangan xalqaro-huquqiy ishtirokining uchta asosiy namoyon bo'lish shakli tahlil qilinadi.

Investitsiya huquqi: protsessual subyektlik va uning nomutanosibligi

Transmilliy korporatsiyalarning cheklangan xalqaro-huquqiy subyektligining eng yaqqol namoyon bo'lishi xalqaro investitsiya huquqi sohasida kuzatiladi. Xususan, Investitsiya nizolarini hal etish bo'yicha xalqaro markaz (ICSID) Konvensiyasi hamda investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlar xorijiy investorlarga,

jumladan transmilliy korporatsiyalarga, mezbon davlatga qarshi xalqaro investitsiya arbitrajida bevosita da'vo qo'zg'atish huquqini beradi[1]. Mazkur huquq, ya'ni xalqaro arbitraj organi oldida mustaqil da'vogar sifatida ishtirok etish huquqi (ius standi), an'anaviy xalqaro huquq nazariyasida asosan davlatlarga xos protsessual vakolat sifatida e'tirof etilgan edi. Biroq investitsiya huquqi doirasida transmilliy korporatsiyalar o'z davlatining diplomatik himoyasiga tayanmasdan, mustaqil ravishda xalqaro arbitraj jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Mazkur holat xalqaro huquq doktrinasida transmilliy korporatsiyalarning xalqaro-huquqiy maqomini asoslashda muhim dalillardan biri sifatida baholanadi. Xususan, Alvares xalqaro investitsiya huquqini transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquq doirasida bevosita huquqlarga ega ekanligini tasdiqlovchi eng muhim misol sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga, u investitsiya huquqi tizimining asosiy kamchiligiga ham e'tibor qaratib, korporatsiyalarga keng protsessual va moddiy huquqlar berilgan bo'lsa-da, ularga mutanosib xalqaro-huquqiy majburiyatlar yuklatilmaganini ta'kidlaydi[7]. Natijada investitsiya huquqida transmilliy korporatsiya xalqaro huquqiy munosabatlarning passiv obyekti emas, balki mustaqil protsessual ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ushbu ishtirok funksional va cheklangan xususiyatga ega bo'lib, u asosan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq, majburiyatlar esa, asosan, davlatlarning milliy huquq tizimlari orqali ta'minlanadi. Aynan huquqlar va majburiyatlar o'rtasidagi mazkur nomutanosiblik bugungi kunda xalqaro investitsiya huquqini isloh qilishga oid ilmiy va amaliy munozaralarning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi.

Yumshoq huquq: xulq-atvor standartlari

Transmilliy korporatsiyalarning xalqaro-huquqiy ishtirokining ikkinchi ko'rinishi xalqaro yumshoq huquq (soft law) mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Biznes va inson huquqlari bo'yicha yo'naltiruvchi tamoyillari (2011), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning Ko'p millatli korxonalar uchun yo'riqnomasi hamda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan tegishli hujjatlar transmilliy korporatsiyalar faoliyati uchun xalqaro xulq-atvor standartlarini belgilaydi[4]. Mazkur hujjatlar xalqaro shartnomalar kabi majburiy yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, ular korporatsiyalarga bevosita qaratilgan xalqaro standartlarni shakllantirishi hamda davlatlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotiga sezilarli normativ ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Ayniqsa, BMTning Biznes va inson huquqlari bo'yicha yo'naltiruvchi tamoyillarini ishlab chiqqan Jon Ruggi ushbu hujjatni yaratishda ongli ravishda ehtiyotkor normativ yondashuvni tanlagan. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, inson huquqlarini himoya qilish majburiyati (duty to protect) davlat zimmasiga yuklatiladi, transmilliy korporatsiyalar esa inson huquqlarini hurmat qilish mas'uliyati (responsibility to respect)ga ega hisoblanadi. Ushbu ikki tushuncha huquqiy

mazmuni va oqibatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi: davlatning majburiyati xalqaro huquq normalaridan kelib chiqadigan yuridik majburiyat bo'lsa, korporatsiyaning mas'uliyati asosan xalqaro yumshoq huquq standartlari va korporativ boshqaruv tamoyillariga asoslanadi[20]. Shu sababli Ruggi transmilliy korporatsiyalarga bevosita xalqaro-huquqiy majburiyat yuklash g'oyasini qo'llab-quvvatlamaydi, aksincha, davlatning himoya qilish majburiyatini markaziy o'ringa qo'yadi. Mazkur yondashuv Vaskes ilgari surgan korporatsiyalarning xalqaro huquqdagi bilvosita majburiyatlari konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, transmilliy korporatsiyalar faoliyatini tartibga solishda davlatning asosiy rolini e'tirof etadi.

Majburiy shartnoma loyihasi: bevosita majburiyatlarga urinish

Transmilliy korporatsiyalarning xalqaro-huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan eng muhim tashabbus Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida ishlab chiqilayotgan majburiy xalqaro shartnoma loyihasi hisoblanadi. Mazkur jarayon BMT Inson huquqlari kengashining 2014-yildagi 26/9-son rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan Ochiq tarkibli hukumatlararo ishchi guruhi (Open-ended Intergovernmental Working Group – OEIGWG) tomonidan olib borilmoqda. Ishchi guruhning asosiy vazifasi transmilliy korporatsiyalar hamda boshqa tadbirkorlik subyektlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan yuridik jihatdan majburiy xalqaro hujjat loyihasini ishlab chiqishdan iborat[2].

Mazkur shartnoma loyihasi yuzasidan muzokaralar izchil davom etib, 2025-yilda ishchi guruhning o'n birinchi sessiyasi doirasida hujjatning yangilangan matni muhokama qilindi[24]. Deva va Bilchits kabi olimlar ushbu tashabbusni transmilliy korporatsiyalarga xalqaro huquq doirasida bevosita majburiyatlar yuklash yo'lidagi muhim qadam sifatida baholaydilar. Shunga qaramay, shartnoma loyihasining amaldagi tahrili tahlili shuni ko'rsatadiki, uning asosiy konsepsiyasi korporatsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri xalqaro-huquqiy majburiyatlar yuklashga emas, balki davlatlarga korporativ faoliyatni milliy qonunchilik orqali tartibga solish va samarali nazorat qilish majburiyatini yuklashga qaratilgan. Ushbu yondashuv muhim nazariy xulosani tasdiqlaydi: hatto transmilliy korporatsiyalar javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan eng keng qamrovli xalqaro tashabbus ham korporativ javobgarlikni, avvalo, davlatlarning milliy huquq tizimlari orqali amalga oshiriladigan mexanizm sifatida nazarda tutadi. Bu esa Vaskes ilgari surgan korporatsiyalarning xalqaro huquqdagi bilvosita majburiyatlari konsepsiyasi bilan hamohangdir. Shu bilan birga, muzokaralar jarayonida davlatlar o'rtasida korporatsiyalarning xalqaro-huquqiy majburiyatlari, javobgarlikning ko'lemi, ekstraterritorial yurisdiksiya hamda majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlariga oid masalalar yuzasidan sezilarli kelishmovchiliklar saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagi tahlillar transmilliy korporatsiyaning xalqaro huquqdagi maqomini baholashda funksional yondashuvning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi. Transmilliy korporatsiya xalqaro huquqning na oddiy obyekti, na davlatlar bilan teng maqomga ega bo'lgan to'laqonli subyekti hisoblanadi. Aksincha, u ayrim sohalar bilan cheklangan, funksional va nomutanosib xalqaro-huquqiy subyektlikka ega. Xususan, xalqaro investitsiya huquqi doirasida transmilliy korporatsiyalar davlatlarga qarshi xalqaro arbitrajda bevosita ishtirok etish imkonini beruvchi protsessual huquqlarga ega bo'lsa, xalqaro yumshoq huquq mexanizmlari doirasida ularga xalqaro xulq-atvor standartlari tatbiq etiladi. BMT doirasida ishlab chiqilayotgan majburiy xalqaro shartnoma loyihasi esa kelajakda korporatsiyalarning xalqaro-huquqiy majburiyatlarini yanada aniqlashtirish va kuchaytirish ehtimolini namoyon etadi. Shu bilan birga, mazkur subyektlikning barcha ko'rinishlarida korporativ javobgarlikni ta'minlashning asosiy mexanizmi davlatlarning milliy huquq tizimlari bo'lib qolmoqda. Binobarin, amaldagi xalqaro huquq amaliyoti transmilliy korporatsiyalarning cheklangan va funksional xalqaro-huquqiy maqomga egaligini tasdiqlash bilan bir qatorda, ularning javobgarligi, asosan, davlatlar vositasida hamda milliy qonunchilik orqali amalga oshirilishini ko'rsatadi. Mazkur xulosa funksional yondashuv hamda Vaskes ilgari surgan bilvosita xalqaro majburiyatlar konsepsiyasining amaliyotda o'z tasdig'ini topayotganini anglatadi.

Munozaraning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati

Yuqorida bayon etilgan nazariy munozara O'zbekiston uchun bir necha amaliy xulosani beradi.

Javobgarlik milliy huquq orqali ta'minlanadi.

Javobgarlikni ta'minlashning asosiy mexanizmi milliy huquq hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transmilliy korporatsiyalar xalqaro huquqning bevosita majburiyat subyekti sifatida e'tirof etilmagani sababli, ularni huquqiy javobgarlikka tortishning asosiy vositasi davlatlarning milliy huquq tizimi hisoblanadi. Mazkur xulosa xalqaro huquq nazariyasidagi turli yondashuvlardan, jumladan, Vaskesning korporatsiyalarning bilvosita xalqaro majburiyatlari haqidagi konsepsiyasidan, Ruggining davlatning himoya qilish majburiyatiga asoslangan yondashuvidan hamda biznes va inson huquqlariga oid majburiy xalqaro shartnoma loyihasining huquqiy konstruksiyasidan mantiqan kelib chiqadi. Hozirgi bosqichda xalqaro huquqda transmilliy korporatsiyalarga bevosita xalqaro-huquqiy majburiyat yuklaydigan va ularning javobgarligini to'g'ridan-to'g'ri ta'minlaydigan universal mexanizm shakllanmagan. Shu bois O'zbekiston uchun transmilliy korporatsiyalar faoliyatini samarali tartibga solish va ularni huquqiy javobgarlikka tortishning eng maqbul yo'li milliy qonunchilikni takomillashtirishdan iborat. Xususan, korporativ barqarorlik, inson huquqlariga hamda atrof-muhitga nisbatan due diligence

(tegishli tekshiruv va ehtiyotkorlik majburiyati) talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish ushbu yo'nalishdagi huquqiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur xulosa tadqiqotning avvalgi boblarida ilgari surilgan takliflarning nazariy-huquqiy asoslarini mustahkamlaydi.

Investitsiya subyektligining ikki tomonlama ta'siri

Transmilliy korporatsiyalarning investitsiya huquqidagi protsessual subyektligi O'zbekiston uchun ikki tomonlama huquqiy ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, ushbu maqom xorijiy investorga, shu jumladan transmilliy korporatsiyaga, investitsiya shartnomalari yoki investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi bitimlar asosida O'zbekiston Respublikasiga qarshi xalqaro investitsiya arbitrajida bevosita da'vo qo'zg'atish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, Alvares qayd etganidek, xalqaro investitsiya huquqida investorlarning protsessual huquqlari keng e'tirof etilgan bo'lsa-da, ularga yuklatiladigan xalqaro-huquqiy majburiyatlar nisbatan cheklangan bo'lib qolmoqda. Mazkur nomutanosiblik O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Uni bartaraf etishning asosiy yo'llari sifatida, birinchidan, milliy qonunchilikda transmilliy korporatsiyalarning korporativ va ijtimoiy majburiyatlarini yanada aniq belgilash, ikkinchidan, investitsiya shartnomalari hamda investitsiyalarni himoya qilish to'g'risidagi xalqaro bitimlarga davlatning jamoat manfaatlarini himoya qilish va tartibga solish huquqini (right to regulate) kafolatlovchi normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu masalalar tadqiqotning avvalgi boblarida batafsil tahlil qilingan bo'lib, mazkur xulosa ularning nazariy va amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Milliy huquqiy shaxslik va korporativ tuzilma

Transmilliy korporatsiyaning murakkab korporativ tuzilmasi O'zbekiston uchun muhim huquqiy ahamiyatga ega. Transmilliy korporatsiya yagona yuridik shaxs emas, balki ona kompaniya va uning sho'ba kompaniyalaridan tashkil topgan mustaqil yuridik shaxslar tizimidan iborat. Shu sababli O'zbekiston o'z hududida faoliyat yuritayotgan sho'ba kompaniyalar faoliyatini milliy qonunchilik asosida tartibga solish hamda ularning huquqiy javobgarligini belgilash vakolatiga ega. Biroq korporativ huquqning fundamental tamoyillaridan biri bo'lgan yuridik shaxsning alohidaligi prinsipi, "Barcelona Traction" ishi amaliyotida tasdiqlanganidek, ona kompaniya va sho'ba kompaniyaning mustaqil huquqiy maqomini saqlab qoladi. Shu bilan birga, Ratnening nazariy yondashuviga ko'ra, korporativ guruhning tashkiliy tuzilishi, nazorat mexanizmlari hamda uning davlat bilan huquqiy aloqalari ayrim hollarda javobgarlikni aniqlash va taqsimlashda e'tiborga olinishi mumkin. Mazkur yondashuv O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro tajriba va zamonaviy huquqiy tendensiyalarni hisobga olgan holda, korporativ guruhlar doirasida javobgarlikni belgilashga oid milliy huquqiy mexanizmlarni yanada

takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu uch tadqiqot o'zaro uyg'un holda yagona konseptual yondashuvni shakllantiradi. Mazkur tadqiqot transmilliy korporatsiyaning xalqaro huquqdagi huquqiy maqomini nazariy jihatdan asoslab, uning xalqaro huquqning to'laqonli emas, balki cheklangan subyekti ekanligini hamda shu sababli korporativ javobgarlikni ta'minlashning asosiy mexanizmi milliy huquq bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Tadqiqotning boshqa qismlarida esa ushbu nazariy yondashuvning amaliy-huquqiy natijalari ishlab chiqilib, xususan, korporativ barqarorlik va due diligence (tegishli tekshiruv va ehtiyotkorlik majburiyati) talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, shuningdek, investitsiya shartnomalarini davlatning tartibga solish suvereniteti (right to regulate) bilan muvozanatlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shu tariqa, nazariy asoslar bilan amaliy huquqiy yechimlarning o'zaro uzviy bog'liqligi tadqiqotning konseptual yaxlitligini, ichki mantiqiy izchilligini hamda ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Xulosa. Mazkur maqolada transmilliy korporatsiyalarning xalqaro huquqiy subyektligi masalasi doirasidagi klassik "subyekt yoki obyekt" munozarasi taniqli xalqaro huquqshunos olimlarning qarashlari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijasida ushbu munozarada beshta asosiy yondashuv shakllangani aniqlandi: korporatsiyani xalqaro huquqning obyeksi sifatida baholovchi an'anaviy yondashuv (Krouford, Shou); uni yangi turdagi xalqaro huquq subyekti sifatida e'tirof etuvchi revizionistik yondashuv (Stefens, Klepem, Karavias, Deva va Bilchits); to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xalqaro majburiyatlarni farqlovchi analitik yondashuv (Vaskes, Ratner); xalqaro huquqiy subyektlilik tushunchasining o'zini qayta ko'rib chiqishga chaqiruvchi skeptik yondashuv (Alvares, Klabbers); hamda transmilliy korporatsiyalarga cheklangan va funksional subyektlilikni tan oluvchi funksional yondashuv (Higgins, Muxlinski). Mazkur yondashuvlarning qiyosiy tahlili aynan funksional yondashuv zamonaviy xalqaro huquq amaliyotini eng to'liq aks ettirishini ko'rsatadi. Xalqaro huquqiy subyektlilik, "Reparations" ishida qayd etilganidek, faqat davlatlarga xos maqom emas. Xalqaro huquq turli ishtirokchilarga ularning vazifasi va funksiyasiga qarab turlicha hajmdagi huquq hamda majburiyatlarni berishi mumkin. Bugungi xalqaro huquq amaliyoti ham transmilliy korporatsiyalar ayrim sohalarda cheklangan xalqaro-huquqiy ishtirokga ega ekanini tasdiqlaydi. Xususan, xalqaro investitsiya huquqida ular davlatlarga nisbatan bevosita da'vo qo'zg'atish protsessual huquqiga ega; yumshoq huquq (soft law) mexanizmlari orqali ularga muayyan xulq-atvor standartlari yuklatiladi; inson huquqlari sohasidagi majburiy shartnoma tashabbuslari esa ularga bevosita xalqaro majburiyatlar yuklash yo'lida rivojlanmoqda. Shu bilan birga, Vaskes va Ruggi ta'kidlaganidek, korporatsiyalarning javobgarligini ta'minlashning asosiy mexanizmi hanuz davlatlar va ularning milliy huquq tizimlari bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun ham muhim amaliy xulosani asoslaydi. Hozirgi xalqaro huquq sharoitida transmilliy korporatsiyalar xalqaro huquqning to'laqonli va bevosita majburiyat egasi sifatida tan olinmaganligi sababli, ularning faoliyatini samarali tartibga solish hamda javobgarligini ta'minlash, avvalo, milliy qonunchilikni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Shu bois transmilliy korporatsiyalar faoliyatini milliy huquq vositalari orqali tartibga solish nafaqat amaliy zarurat, balki xalqaro huquq nazariyasidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosadir. Demak, xalqaro huquqiy subyektlik masalasi nazariy bahs bilangina cheklanmay, davlatlarning transmilliy korporatsiyalarni tartibga solish siyosati va huquqiy mexanizmlarini shakllantirishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Convention on the Settlement of Investment Disputes between States and Nationals of Other States (opened for signature 18 March 1965, entered into force 14 October 1966) 575 UNTS 159
2. Human Rights Council Res 26/9 (26 June 2014) UN Doc A/HRC/RES/26/9
3. OECD, Guidelines for Multinational Enterprises on Responsible Business Conduct (OECD Publishing 2023)
4. UN Human Rights Council, 'Guiding Principles on Business and Human Rights: Implementing the United Nations "Protect, Respect and Remedy" Framework' (21 March 2011) UN Doc A/HRC/17/31
5. Barcelona Traction, Light and Power Company, Limited (Belgium v Spain) (Second Phase) [1970] ICJ Rep 3
6. Reparations for Injuries Suffered in the Service of the United Nations (Advisory Opinion) [1949] ICJ Rep 174
7. Alvarez JE, 'Are Corporations "Subjects" of International Law?' (2011) 9 Santa Clara Journal of International Law 1
8. Clapham A, Human Rights Obligations of Non-State Actors (OUP 2006)
9. Crawford J, Brownlie's Principles of Public International Law (9th edn, OUP 2019)
10. Deva S and Bilchitz D (eds), Human Rights Obligations of Business: Beyond the Corporate Responsibility to Respect? (CUP 2013)
11. Higgins R, Problems and Process: International Law and How We Use It (OUP 1994)
12. Jessup PC, 'Subjects of a Modern Law of Nations' (1946) 45 Michigan Law Review 383
14. Karavias M, Corporate Obligations under International Law (OUP 2013)
15. Kelsen H, Principles of International Law (Rinehart 1952)

16. Klabbers J, 'The Concept of Legal Personality' (2005) 11 *Ius Gentium* 35
 17. Lauterpacht H, *International Law and Human Rights* (Stevens 1950)
 18. Muchlinski P, *Multinational Enterprises and the Law* (3rd edn, OUP 2021)
 19. Ratner SR, 'Corporations and Human Rights: A Theory of Legal Responsibility' (2001) 111 *Yale Law Journal* 443
 20. Ruggie JG, *Just Business: Multinational Corporations and Human Rights* (WW Norton 2013)
 21. Shaw MN, *International Law* (8th edn, CUP 2017)
 22. Stephens B, 'The Amoralism of Profit: Transnational Corporations and Human Rights' (2002) 20 *Berkeley Journal of International Law* 45
 23. Vázquez CM, 'Direct vs Indirect Obligations of Corporations under International Law' (2005) 43 *Columbia Journal of Transnational Law* 927
- Hisobotlar va onlayn manbalar
24. Business & Human Rights Resource Centre, 'UN Binding Treaty' <https://www.business-humanrights.org/en/big-issues/governing-business-human-rights/un-binding-treaty/> (accessed June 2026)
 24. OHCHR, Open-ended intergovernmental working group on transnational corporations and other business enterprises with respect to human rights, eleventh session (Geneva, 20–24 October 2025) <https://www.ohchr.org> (accessed June 2026)